

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA BAYON YOZISHNING
AHAMIYATI VA TURLARI**

Nuritdinova Gulchehra Zoyirovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

34- umumiy o'rta ta'lif maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqola boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga bayon yozdirishda o'qituvchilar uchun metodik yordam sifatida yozilgan.Bunda bayonning turlari,qaysi bayon turi qaysi sinflarda o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'lishi, qaysi bayon turi o'quvchilarining qanday qobilyatlarini rivojlantirishga asos bo'lishi haqida batassil fikrlar berilgan.*

Kalit sozlar: *Ta'lif, yozma, nutq, reja, hikoya, imlo, matn, tasavvur, orfografiya, talaffuz.*

Barkamol shaxs tarbiyasi barcha davrlarda jamiyat taraqqiyotidagi muhim talabi va maqsadlaridan biri bo'lib kelgan.O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi tufayli esa ta'lif muassasalari oldiga yangi barkamol avlod vakillarini shakllantirishdan iborat o'ta muhim vazifa qo'yildi.Hozirda ta'lif islohotlari davrida barkamol shaxs tarbiyasi bilan juda ko'p muammolarning yechimi uzviy bog'langan.

Boshlangich sinf ona tili ta'lifi o'quvchilarda tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish,erkin fikrlay olish,o'zgalar fikrini anglash,o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish ko'nikmalarini hosil qilish,jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Bunda ona tili darslarida bayon yozishga o'rgatish katta ahamiyatga ega bo'lib kishilarning fidokorona mehnati,hayoti,ona tabiat tasviri, fan-texnika,madaniyat borasidagi yutuqlarini aks ettiradigan yuksak g'oyali bayon mavzusi o'quvchilarining bilish tajribasini kengaytirib,ularning dunyoqarashini shakllantiradi.O'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda yozma ishning bir qancha turlaridan foydalaniladi.Ana shunday ish turlaridan biri bayondir.

Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mazmuni,syujeti,kompozitsiyasi hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar.Bu esa nutq malakasini takomillashtirishga yordam beradi.Grammatika va orfografiyadan olgan bilimlarini amaliyatga tadbiq etadilar,ularning nutqida yangi-yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi,materialni mustaqil va samarali bayon etish qobilyatiga ega bo'ladilar.Shu jihatdan bayon yozma nutq malakasini hosil qilishda muhum o'rinn tutadi. Bayon yozishda yozma nutqni o'stirish bilan birga matnning g'oyaviy-siyosiy,ta'lif –

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

tarbiyaviy tomoniga jiddiy ahamiyat beriladi,bayonning turli shakllarda amalga oshirilishi ham ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan bayonlar ko'proq ta'limiy xarakterga ega bolib,ular og'zaki va yozma holda olib boriladi.I-V sinflarda bayonlarni muntazam o'tkazib turish o'quvchilarning so'zlarni tog'ri talaffuz qilishga,matnni ongli,ifodali o'qish va so'zlab berishga yordam beradi.Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning so'zlarni togri yozish malakasini rivojlantirishga,o'zbek adabiy til normalarini mukammal o'zlashtirishga hamda nutq madaniyatini egallash uchun imkon yaratadi.

Bayon yozishga o'rgatishdagi asosiy metodik tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1.O'qituvchi tomonidan matnni ifodali ta'sirli qilib o'qib berish va savollar yordamida qismlarga bo'lib yoki to'liq holda so'zlatish.

2.Bayon rejasi ustida ishslash.

3.Lugaviy-orfografik ishlar,matnda uchragan qiyin so'zlar ma'nosi va imlosini tushuntirish:obrazli iboralardan foydalanish yo'llarini o'rgatish.

4.Matnni qayta o'qib berish va 2-3 o'quvchiga reja asosida hikoya qildirish.

5.Bayon yozishga ruxsat etish.

Bayon yozish vaqtida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tegishli yordam beriladi.Imlosi o'r ganilmagan so'zlarni qisqacha izohlaydi.Ularga orfografik lug'atdan foydalanishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda bayonning quyidagi turlari o'tkaziladi:

1.To'liq yoki mukammal bayon.

2.Tasvir elementlari bo'lgan bayon.

3.Grammatik topshiriqli bayon.

4.Matn mazmunini qisqartirib bayon qilish.

5.Boshlab berish yo'li bilan bayon qilish.

1.To'liq yoki mukammal bayon qilish

O'quvchilar bayonning bu turida ifodali o'qish darslarida o'qilganlarni qayta hikoya qilib berish uchun qiynaladilar.Bunday hollarda o'qituvchi o'qilgan matnning mazmuniga mos savollarda foydalanadi.(1-2-sinflar uchun)

CHIN DOSTLAR

Hayrullo va Akmal bir sinfda oqiydilar.Ular qalin do'st. Akmal shamollab kasal bo'lib qoldi.Kasali biroz cho'zildi.Shuning uchun darslardan ham qolib ketdi.Hayrullo maktabdan kelgach,Akmalga o'zi olgan saboqlarini o'rgata boshladи.Akmal qoldirilgan darslarni o'zlashtirib oldi.U chin do'stiga yordami uchun minnatdorchilik bildirdi. Sinfdoshlari ularga havas qilishdi.

REJA:

1.Kimlar qalin do'st edi?

2.Hayrullo do'stiga qanday yordam berdi?

3.Kimlar ularga havas qilishdi?

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

YOZUV TAXTASI UCHUN SOZLAR:

1.Hayrullo,do'st,shamollab,saboqlarni,havas.

2.Tasvir elementlari bo'lgan bayon

Tasvir elementlari bilan bayon yozishga tayyorgarlik ishlari 1-2 sinflardan boshlanadi.Buning uchun izohli o'qish darslarida tabiat,voqeа sodir bo'lgan joy,kishilarning tashqi ko'rinishi tasvirlangan matnlarni o'quvchilarga so'zlatish orqali har bir matnning tasviriy tomonlariga e'tibor beriladi,undagi o`zlashtirishlarni aniqlash yuzasidan topshiriq berish orqali tasviriy bayonlar ustida ishslashga o'rgatiladi. Tasviriy elementlar bilan bayon yozish 3-sinfda boshlanadi, masalan, "Do'l" matnida havoning o'zgarishi natijasida daraxtlarning shamoldan go'yo ingragandek ovoz chiqarishi, momaqaldoqning gumburlashi,do'lning ko'rinishini tasvirlaydi.Tasviriy elementlar bilan bayon yozishda o'xshatish va sifatlashlardan ko'proq foydalaniladi.

3.Grammatik topshiriqli bayon

Bayonning bu turi 3-4-sinflarda o'tkaziladi.Bunday bayon yozdirishdan ilgari izohli o'qish darslarida o'quvchilarning oqilgan hikoyalariidagi shaxsni o'zgartirib qayta hikoyalash yuzasidan mashqlar o'tkazilgan bo'lishi kerak.O'quvchilar shaxsni o'zgartirib hikoyalash haqidagi ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng,shunday turdag'i bayonni o'tkazish maqsadga muvofidir.Bayonning bu turi o'quvchidan hikoyadagi gaplarni qayta qurishni talab qiladi,chunki hikoya 1-shaxs tilidan berilgan bo'lsa,uni 2-shaxs nomidan,3-shaxs nomidan berilgan bo'lsa,1-shaxs nomidan bayon qilish va bunda ega va kesimlarni shaxs-sonda moslashtirish lozim.

4.Matn mazmunini qisqartirib bayon qilish

Bayonning bu turi 3-4-sinflarda qo'llanilib,o'quvchilardan ko'proq mustaqillikni talab qiladi.Bunda o'quvchilar matn mazmunini yo'qotmay,undagi har bo'limdan asosiy mazmunini ajratib olish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.Bunda matnning eng muhim masalalari ikkinchi darajali matnlardan ajratib olinadi va asarning o'ziga xos xususiyati saqlangan holda asar syujeti qisqartirilib,umumlashtirilgan holda yoziladi.Shu jihatdan bunday bayon turi tafakkur va nutq o'stirishga ko'proq ta'sir qiladi,mustaql,ijodiy va aktiv fikr yuritishga undaydi.

5.Boshlab berish yoli bilan bayon qilish

Bayonning bunday turi o'quvchilar diqqatini ma'lum bir voqeaga tez qaratishga va ularning ijodiy qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.Bu bayonni o'tkazishda o'qituvchi biror voqeanning borishini 2-3 jumla bilan boshlab beradi,o'quvchilar esa o'qituvchi boshlab bergen voqeа mazmunini ijodiy tasavvurlar asosida avval og'zaki,so'ngra yozma ravishda davom ettiradilar va uni biror voqeа haqidagi hikoya shakliga qadar rivojlan Tirib boradilar.

Bayonning bu turi 2-sinfda o'quv yilining 2-yarmidan boshlab foydalaniladi,o'quvchilar bayonning bu turini sevib bajaradilar.O'quvchilarni

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

boshlab berish yo'li bilan bayon yozishga o'rgatishda voqeа va uning qay tarzda davom ettirishga xos rasm tanlab,boshlab berilsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: Darsga qo'ng'iroq chalindi.Sinf suv quygandek jimjit.Birdan Sobirning telefoni jiringladi. O'quvchilar matnni ijodiy davom ettirdilar.

Bayon tahlili uchun o'qituvchiga eslatma:

- 1.O'quvchilarni bayon ishi haqida umumiy suhbat.
- 2.Eng yaxshi bayon namunalarini ko'rsatish.
- 3.Imlo qoidalarga mosligini tekshirish.
- 4.Matnga mos bolmagan ortiqcha so'zlarni o'qib eshittirish.
- 5.Qaysi asosiy fikr tushib qolganini o'quvchiga aytish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Birinchi sinfda o'qitish.-T.:O'qituvchi,1975-yil.
- 2.Yoldoshev J.G. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish.-T.:Sh`rq,2000-yil.
- 3.www.arxiv.uz